

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 94(575.1) "Amir Temur"

AMIR TEMUR MOHIR STRATEGIK

АМИР ТЕМУР ОПЫТНЫЙ СТРАТЕГ

AMIR TEMUR IS A SKILLED STRATEGIST

Mamajonov Soyibjon Halilovich Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi,
dotsent**Annotatsiya**

Amir Temur mohir strateg nomli maqolam ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan hozirgi kundagi yosh avlodni buyuk tarximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, uning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha juda muhim dolzarb ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация

Моя статья «Амир Темур – искусный стратег» призвана пропагандировать нашу великую историю, богатое духовное наследие наших великих предков, его вклад в развитие мировой цивилизации и военного искусства среди молодежи нынешнего молодого поколения, обучающейся в учебных заведениях, и служит очень важной актуальной информацией по патриотическому воспитанию.

Abstract

My article, Amir Temur, a skilled strategist, is intended to promote our great history, the rich spiritual heritage of our great ancestors, and his contribution to the development of world civilization and military art among the youth of today's young generation studying in educational institutions, and serves as a very important up-to-date information on patriotic education.

Kalit so'zlar: Harbiy yurishlar, Amir Temur davlati, buyuk sarkarda, Amir Temur buyuk hukmdor, markazlashgan davlat, hujumga o'tish, oldindan razvedka qilish, parokandalikka solish, to'satdan zarba berish, dushmani chalg'itish, jang maydoni, zahira.

Ключевые слова: Военные кампании, Государство Амира Темура, Великий полководец, Великий правитель Амир Темур, Централизованное государство, Атака, Передовая разведка, Срыв, Внезапность, Отвлечение врага, Поле боя, Резерв.

Key words: Military Campaigns, Amir Temur's State, Great General, Amir Temur's Great Ruler, Centralized State, Attack, Advance Reconnaissance, Disrupt, Surprise, Distract the Enemy, Battlefield, Reserve.

KIRISH

Amir Temurning harbiy yurishlaridan asosiy maqsadi – markazlashgan davlat barpo etishdan, o'z davlati va xalqini tashqi dushmandan asrashdan, aholini tinch hayotini ta'minlashdan iborat edi. Uning g'olibona yurishlari, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan, savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlangan yirik imperiyaning tashkil etilishiga olib keldi.

O'rta Osiyo va Egey daryosining g'arbigacha bo'lgan ulkan hudud Amir Temur davlati tasarrufiga kirdi. Sharqning ikkita yirik imperiyasi, Turkiya va Misr buyuk sarkardaga tobe bo'ldi.

Amir Temurdek daho mahorati oldida bosh egib, uning harbiy san'ati, ya'ni strategiyasi va taktikasidan haqli ravishda mag'rurlanamiz. Harbiy san'at unga buyuk sarkarda shuhratini keltirdi. Uning janglari jahonning ko'pgina harbiy akademiyalarida o'rganiladi. Amir Temur buyuk hukmdor, tashkilotchi va ajoyib shaxs bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XIV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududida Amir Temur rahbarligida qudratli markazlashgan davlat barpo etildi. Qudratli davlatni himoya qilish, uning hududini kengaytirish va xalqini tinch hayotini ta'minlash maqsadida mustahkam intizomga ega bo'lgan kuchli armiya yaratilishi keng yoritilgan.

Amir Temur o'zining tezkorligi, dushman hududiga o'tish qiyin bo'lgan davonlar, suv to'siqlari va boshqa dushman kutmagan tomonlardan yorib kirib g'alabalarga erishishi hamda hujumga o'tish vaqtini Amir Temur doimo sir saqlaganligi ko'rsatilgan.

Amir Temur strategiyasining xarakterli tomonlari quyidagilar:

- dushmanni oldindan razvedka qilish va harbiy harakatlar maydonini o'rganish;
- dushmanni kuchsizlantirish va g'alabaga bo'lgan ishonchini barbod qilish maqsadida parokandalikka solish va ruhini sindirish bo'yicha keng tadbirlarni oldindan o'tkazish;
- to'satdan zarba berish va asosiy kuchlarni bosh yo'nalishda jamlagan holda dushman hududiga bir necha yo'nalishdan bostirib kirish va uning kuchlarini bo'laklarga bo'lib tashlash va tor-mor etish;
- nafaqat dushman armiyasini to'liq tor-mor qilishga, balki uning harbiy qudrati manbalarini ham yo'q qilishga harakat qilish;
- o'z rejalari bo'yicha dushmanni chalg'itish maqsadida manyovrni keng qo'llash;
- dushmanni va jang maydonini razvedka qilish uchun nafaqat josuslar yuborilgan, balki alohida yirik otryadlarning strategik harakatlari ham o'tkazilgan.

Razvedka ma'lumotlari asosida harbiy yurishning rejasi ishlab chiqilgan va qurultoyda muhokama qililib, u og'ishmay bajarilgan. Amir Temurning maxsus razvedkachilari ham bo'lib, ular g'anim davlati hududiga darveshlar, savdogarlar, karvonchilar, masxarabozlar, kurashchilar, astronomlar va tilanchilar ko'rinishida kirib, dushman armiyasi, uning qurol-yarog'i, aholisi, mansabdor shaxslari, shahar va uning kirish uchun qulay bo'lgan darvozalari, joy relyefi haqida aniq ma'lumotlar olganlar, ayrim hollarda aniq chizmalar va kartalar qo'lga kiritilgan. Bu to'g'risida Ibn Arabshoh o'zining "Amir Temur tarixi" kitobida to'liq ma'lumot bergan. Dushmanning ruhini tushirish va uni kuchsizlantirish uchun dushman tomoni zodagonlari va harbiy boshliqlari pul evaziga sotib olingan, uning orasida mag'lubiyat kayfiyati va Amir Temur qo'shinining yengilmasligi to'g'risida mish-mishlar tarqatilgan, dushman o'rtasida vahima va qarshilik ko'rsatish foydasizligi haqida gaplar tarqatilgan, qo'rqitish ishlari olib borilgan. To'satdan zarba berish omilini qo'lga kiritish uchun Amir Temur urush e'lon qilish uchun bahona izlamagan, aksincha dushman kutmagan paytda bostirib kirgan.

Amir Temur dushmanning jonli kuchlarini dala jangida qirib tashlab urushda yutib chiqishga doimo intilgan. Muhim ahamiyatga ega bo'lmagan va hujumga xalaqit bermaydigan qal'alar va istehkomlar chetlab o'tilgan, mabodo shunday shahar va qal'alar qo'shinining harakat yo'nalishida joylashgan bo'lsa va muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ular shturm qilish yo'li bilan zabt etilgan, bunda xitoyliklar va mo'g'ullardan qolib kelgan qamal qilish texnikasi keng qo'llanilgan.

Uni harbiy mahoratining asosiy quroli harakatchanlik va to'satdan zarba berish bo'lgan. Amir Temur harbiy yurishlarni asosan bahorda, yozda va kuzda olib borgan, qishda bo'lajak jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko'rilgan. Uning kompaniyalari ma'lum rejaga ega bo'lmagan, u vaziyat qulay va manfaatli sharoitni yuzaga keltirsa yurish yo'nalishini yoki belgilangan maqsadni o'zgartirgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Amir Temur mohir harbiy boshliq va diplomat bo'lgan. U o'zining 35 yillik harbiy faoliyati davomida armiya avangard, arergard, o'ng va so'l qanotlarga, zarbdor kuch — markazga (asosan barloslardan), zaxira va razvedkaga ega bo'lishi kerakligini chuqur tushunib yetdi. Amir Temur yurishlarda bir necha otryaddan tashkil topgan avangardning bevosita ortida joylashgan. Jangda ham safarda ham piyoda qo'shin ortidan kuchli qo'riqlov ostida aravalarda front orti ta'minoti harakatlangan. Ayrim hollarda dushman unga hujum qilgan, ammo birorta safarda davomida u dushman qo'lga tushmagan. Front orti ta'minoti ortidan ko'chmanchilar oilasi o'z otarlari, aravalari, chodirlari bilan harakatlangan. Armiya safarda har bir jangchi o'zi bilan olgan zaxiralar, hamda bosib olingan davlatlarning mahalliy resurslari hisobidan ta'minlangan.

XULOSA

Temir intizom, yaxshi tashkilotchilik va qo'shinining o'ta harakatchanligi hamda yuqori strategik va taktik san'at — harakatchanligi sust, tarqoq, birligi bo'lmagan davlat ustidan ancha hukmronlikni ta'minladi. Bundan tashqari Amir Temurning ko'p sonli qo'shini yagona qo'mondonlikka bo'ysundirilgan edi.

Amir Temurning strategik mahorati urush harakatlarini qat'iy maqsadlarni ko'zlab yuqori darajada olib borish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юнус Ўғуз. Амир Темур "Юксалиш сари". – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 584 б. Хиндистон.
2. Юнус Ўғуз. Амир Темур "Дунёнинг ҳокими". – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 590 б. Туркия.
3. Михаил Иванин. Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 301 б.
4. Razin E.A. Istoriya voennogo iskusstva. 1994.
5. Mixail Ivanin. Chingizhon va Amir Temur. – Т.: Yangi asr avlodi, 2018. – 301 b.
6. Harbiy tarix san'ati, darslik H.Dadaboev. Toshkent 2013.
7. Temur tuzuklari Toshkent — 2005 y. Sharq.
8. Караматов Х. Амир Темур в мировой истории. – Т.: Издательство «Шарк», 2001. — 304 с.